

## «DEVONI LUG'OTIT-TURK»DAGI BA'ZI SO'ZLARNING SEMANTIKASI TADQIQI

Yaxshiyev Afzal Hojakbar o'g'li

Buxoro davlat universitetining Pedagogika instituti talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.6589593>

**ANNOTATSIYA.** Ushbu maqola semasiologiya sohasidagi izlanishlardan biri bo'lib, unda XI asr turkiy tili so'zlarining semantik strukturasi yuz bergan ma'noviy o'zgarishlar – zid ma'no taraqqiyoti tahlilga tortilgan. Muallif so'z semantik strukturasi yuz bergan ayni o'zgarishlarni M.Koshg'ariyning «Devoni lug'otit-turk» asari asosida dalillagan.

**Kalit so'zlar:** so'z, semantik struktura, ma'no o'zgarishi, zid ma'no taraqqiyoti, enantiosemiya

Turkiy tillar tarixiga oid qimmatli manba sanalmish «Devoni lug'otit-turk» necha yildirki, tilimiz tarixini o'rganuvchilar uchun muhim manbalardan biri bo'lib xizmat qilib kelmoqda. Mazkur maqolada qadimgi turkiy tildagi ba'zi so'zlarning semantikasida sodir bo'lgan ma'noviy o'zgarishlar haqida so'z boradi.

Ma'lumki, davr o'tishi bilan tilning barcha sathlarida bo'lgani singari leksikasida ma'noviy o'zgarishlar yuz beradi. Tilning tarixiy taraqqiyoti davomida ba'zi so'zlar o'z hayotini yashab bo'lib, tamoman iste'moldan chiqib ketsa, ba'zi so'zlardagi ma'no boshqa bir ma'no tomonidan siqib chiqariladi. So'zdagi ana shunday semantik o'zgarish natijasida cinxon va diaxon jihatdan qaraganda ma'noviy har xillik, zidlik yuzaga keladi. So'z semantikasida bu kabi qarama-qarshi ma'nolarning yuzaga kelishi tilshunoslikda enantiosemiya deb ataladi. Quyida Mahmud Koshg'ariyning «Devoni lug'otit-turk» asaridagi ayrim so'zlarning semantikasida yuz bergan ma'noviy o'zgarishlarga to'xtalamiz. Maqolada ot, sifat va fe'l turkumiga oid enantiosemiya tahlilga tortiladi. Avval ot turkumiga mansub tegit yoki tegin, aba, qazın, öt, yjyk kabi enantiosemik so'zlar haqida to'xtalamiz. Tegit so'zi tegin so'zining ko'pligi bo'lib, qadimgi turkiy tilda «qullar» va «shahzodalar» ma'nosini anglatgan. Ayni shu qarama-qarshi ma'no tegin so'zi orqali ham berilgan. Tegin so'zining «shahzoda» ma'nosida qo'llanilishi Afrosiyobning bolalari biror ish, voqea, xabarni aytganda yoki yozganda otalariga hurmat yuzasidan o'zlarini kamtar tutib, «qulingiz falon qildi» deb «qulingiz» o'rnida tegin so'zini ishlatganlar. Keyinchalik bu so'z ularga ism bo'lib qolgan: **ykā tegit** – oddiy xalqning kattalari. Shuningdek, tilshunos S. Mutallibov «qul» ma'nosini anglatuvchi – qul, kuzogu, qorabosh, tikin, go'ng, qunjun, qirpoq so'zlarini keltirib,

ularning XI asrgacha shu ma'noni ifodalash uchun qo'llanilgani, XI asrdan keyin esa ularning ko'pi, shu jumladan, tegin so'zi ham iste'moldan chiqib ketganligini qayd etadi. Tegin so'zining «shoh» yoki «shahzoda» ma'nosini anglatganligi O'rxun-Enasoy yodgorliklaridagi Kul tegin, Yo'llug' tegin kabi ismlar tarkibida ham kuzatiladi.

«Devoni lug'otit-turk»da yozilishicha, aba so'zi ham «ota», ham «ona» ma'nolarini anglatgan. Mahmud Koshg'ariy bu so'zning o'g'uzcha ekanligini qayd qilib, qarluq lahjasida so'zlashuvchi turkmanlar tilida qatiq p tovushi bilan apa tarzida qo'llanilishini ta'kidlaydi. Hozirgi o'zbek tilining Namangan shevasida bu so'z saqlanib qolgan bo'lib, u «ona» ma'nosida qo'llaniladi. O'rni kelganda shuni aytib o'tish lozimki, muayyan jinlar o'rtasidagi farqlanish – antonimlikni yuzaga keltirishi borasida tilshunoslarning fikri bir xil emas. Tilshunos S.Usmonovning ta'kidlashicha, muayyan jinlar o'rtasidagi farqlanishga antonimlar sifatida qaramoq lozim. Negaki, ota-ona, yigit-qiz kabi birliklardagi farqlanish faqatgina biologik jins tushunchasi bilan bog'liq bo'lmay, ular o'rtasida ijtimoiy qutblanish mavjud. Bizningcha ham, so'z ma'nosining ijtimoiy xususiyatlarga ko'ra qutblanishi ma'lum ma'noda zidlikni ko'rsatib turadi. Qazin so'zi qadimgi turkiy tilda quyidagi ma'nolarni ifodalagan: «qayin ota», «qayin ona»; «kuyov» va «kuyovning qarindoshlari». Lug'atshunos mazkur so'zning «qayin ota» va «qayin ona» ma'nolariga Qadash temish qojmaduq, Qazin temish qomjish (Qarindoshlarga og'a-ini keldi deyilsa, unga e'tibor berilmadi. Qayin ona (ota) keldi deyilgan edi, darrov qaradi) misolini keltiradi (383- bet). «Kuyov» ma'nosiga esa qazin-qaznag'un – kuyov va kuyovning qarindoshlari birikmasini keltiradi (481-bet). Ushbu misollardan kelib chiqib aytish mumkinki, bu so'z «qayin ota» va «qayin ona», «kuyov» va «qayin ota», «kuyov» va «qayin ona» ma'nolari bilan o'ziga xos zidlikni tashkil etadi.

Ot so'zi ham «dori, davo» (öt ichtim – dori ichdim) va «og'u, zarar» (Beg ahar öt berdi – Bek unga zahar berdi) (71-bet) ma'nolarini anglatishi bilan enantiosemetiklikni yuzaga keltiradi.

Devonda sifat turkumiga mansub alchaq, sergak so'zlari ham qarama-qarshi ma'nolarni bildiradi. Alchaq so'zi qadimgi turkiy tilda «yumshoq tabiatli, yuvosh», «zarif» ijobiy ma'nolarini anglatgan(126-bet): Alp jag'ida, alchaq jag'ida – Botir dushman bilan to'qnashganda, olishganda, yuvosh tirishishda sinaladi(77-bet). Yusuf Xos Hojibning «Qutadg'u bilig» asarida ham ushbu so'z ijobiy ma'noda qo'llangan:

**Kichigi sevuglug, qarisi amul,**



### **O'zi tuzun, alchaq, ko'r, asg'i o'gush**

(Qariligi savlat, go'zal yoshligi, O'zi a'lo, afzal, talay, ko'r naf'in) . Hozirgi o'zbek tilida bu so'z salbiy ma'noni anglatadi: Qo'rqqoq deysanmi, olchoq deysanmi — nima desang deyaver (T. Malik, «Shaytanat»). Biroq hozirgi turk tilida alchaq so'zi ijobiy ma'noda ham ishlatiladi.

Sergak so'zi XI asr turkiy tilda «mastlikdan egilish, qiyshayish, sollanish, gindiraklash» ma'nosini ifoda etgan: äsrÿk sergäilädi – mast gindirakladi, sollandi<sup>8</sup> . Hozir bu so'z «tez, darhol sezadigan; sezgir, ziyrak» ma'nolarini anglatadi: Bu orada boloxonadagi sergak yigitlar tushib, arqonni yechishdi (T. Malik, «Shaytanat»). Fe'l turkumiga mansub ag'ish XI asrda «ko'tarilish» va «og'ish» ma'nosini anglatgan. Diqqat qilinsa, mazkur so'zning ma'nolari «pastdan yuqoriga tomon harakat» va «yuqoridan pastga tomon harakat» yo'nalishini ifoda etishi bilan muayyan zidlikni namoyon etadi:

Ag'di qizil bajraq,

Tug'di qara topraq

(Musulmon askarlarining qizil bayroqlari ko'tarildi, Qora tuproq yuqori ko'tarildi). Hozirgi o'zbek tilida og'moq so'zining qadimgi ma'nosi – «ko'tarilmoq» iste'moldan chiqqan. Säldi so'zi qadimgi turkiy tilda «chiqardi» ma'nosini anglatgan: Ol meñä kishidä altun säldi – u menga bir kishidan oltin chiqardi. Misoldan ko'rinadiki, salmoq fe'li «biror kishi orqali bir narsa bermoq» ma'nosini anglatgan. Mazkur so'z hozirgi o'zbek tilida «biror narsa ichiga yoki ustiga joylamoq, qo'y moq, tashlamoq» ma'nosini bildiradi: Chol «xo'p» deb, bo'rini qopga solib, ustiga poxol yopib bekitib qo'yibdi («Chalpak yoqqan kun»). Natijada mazkur so'z diaxron planda – til taraqqiyotining ikki davrida «muayyan narsaning kamayishi» hamda «muayyan narsaning ortishi» sememalari bilan ma'noviy zidlikni yuzaga keltiradi. Yuqoridagilardan kelib chiqib aytish mumkinki, so'zning ma'no taraqqiyotida yuz beradigan ma'noviy zidlik – enantiosemiya XI asr qadimgi turkiy tili uchun ham taalluqli. Bu kabi so'zlar ajdodlarimizning, umuman, arxaik tafakkurning voqelikni o'ziga xos idrok etish tarzi bilan bog'liqligini ham ko'rsatadi.

Ушбу мақолада ўқув луғатларининг умумий луғатлардан нафақат ҳажми, балки ундаги сўзларнинг танланиш мезонлари, луғат қисмларининг таркиби, жойлашуви – мегаструктураси билан ҳам фарқланиши, синоним ўқув луғатлар луғат мақоласи



таркибида лексикографик пометалар (турли қисқартмалар, белгилар)га кам ўрин берилганлиги муҳокама қилинади.<sup>1</sup>

This article is dedicated to the research of Adjusted meanings of Moral-spiritual concept defining units in the Uzbek language. And also analyzed the semantic analysis of grammatical shape lexemes of specialized meaning and provide a corresponding recommendation for lexicographical practice in the Uzbek language is one of the actual challenges of linguistics as today's challenge.<sup>2</sup>

Корпус лингвистикасида семантик разметка, унинг теглар тизими, тег категориялари, семантик теглаш муаммолари, кўпмаънолилик ва омонимлик муаммосини ечиш масаласига оид қатор тадқиқотлар вужудга келган.<sup>3</sup>

The article discusses the research methods of Uzbek language syntax. In Uzbek linguistics, syntactic phenomena have been studied in detail since the 1930s, and several syntactic theories have emerged in this regard.<sup>4</sup>

The article examines the first dictionary in the Turkish language Mahmud Kashgaris “Devonu lugotit turk” in terms of a dictionary in accordance with the traditions of world lexicography and argues that it is the first appearance of modern complex dictionaries in the Turkish (Uzbek) language.<sup>5</sup>

Now studying scientific heritage, socio-political activities and acquaintance youth charity of our above-stated ancestors is considered one of the main urgent objectives of the modern intellectuals.<sup>6</sup>

<sup>1</sup> Гуландом Мирханова. (2022). СИНОНИМ СЎЗЛАР ЎҚУВ ЛУФАТИНИНГ УМУМИЙ ТУЗИЛИШИ. *Yosh Tadqiqotchi Jurnalı*, 1(2), 172–178. Retrieved from <http://2ndsun.uz/index.php/yt/article/view/90>

<sup>2</sup> Gulbahor, T. (2016). Adjusted Meanings of Moral-Spiritual Concept Defining Units. *ANGLISTICUM. Journal of the Association-Institute for English Language and American Studies*, 5(7), 40-45.

<sup>3</sup> Ахмедова, Д. (2020). Семантик разметка тизимида тег гуруҳлари. *Oriental Art and Culture*, (III), 440-444.

<sup>4</sup> Ergashevna, Y. N. (2021). ON METHODS OF RESEARCH OF UZBEK LANGUAGE SYNTAX. *Galaxy International Interdisciplinary Research Journal*, 9(11), 22-28.

<sup>5</sup> Bakhriddinova, B. M. (2020). “DEVONU LUGOTIT TURK” AS A FIRST VIEW OF MODERN COMPLEX EDUCATIONAL DICTIONARIES. *Theoretical & Applied Science*, (4), 981-985.

<sup>6</sup> Tolibjonovich, M. T. (2021). EASTERN RENAISSANCE AND ITS CULTURAL HERITAGE: THE VIEW OF FOREIGN RESEARCHERS. *ResearchJet Journal of Analysis and Inventions*, 2(05), 211-215.



This article covers the main place of small business and business in today's market economy. Including scientifically analyzed the development of small business and business, and the legal basis, at this time financially support small business and business, the latter is amended and the rules for this branch of national legislation are added.<sup>7</sup>

Мамлакатимиз тараққиётининг янги босқичида жамият ҳаётининг асосий негизи бўлмиш оилалар барқарор муҳитини мустаҳкамлаш ва бу масалаларда хотин-қизларнинг ўрни ва аҳамияти ошириш долзарб аҳамият касб этмоқда. Юртимиз аҳолисининг тенг ярмига яқинроғини ташкил этадиган хотин-қизлар жамиятнинг барча соҳаларида самарали фаолият юритмоқда.<sup>8</sup>

In this article are given the importance, role, types of the family in modern society. Its development from ancient times till present is widely described in this article.<sup>9</sup>

The widespread introduction of new pedagogical technologies in teaching students of higher educational institutions and the effective use of innovative technologies are the main support for improving the quality of education.<sup>10</sup>

#### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Гуландом Мирханова. (2022). СИНОНИМ СЎЗЛАР ЎҚУВ ЛУФАТИНИНГ УМУМИЙ ТУЗИЛИШИ. *Yosh Tadqiqotchi Jurnal*, 1(2), 172–178. Retrieved from <http://2ndsun.uz/index.php/yt/article/view/90>
2. Gulbahor, T. (2016). Adjusted Meanings of Moral-Spiritual Concept Defining Units. *ANGLISTICUM. Journal of the Association-Institute for English Language and American Studies*, 5(7), 40-45.
3. Ахмедова, Д. (2020). Семантик разметка тизимида тег гуруҳлари. *Oriental Art and Culture*, (III), 440-444.

<sup>7</sup> Tolibjonovich, Madumarov T., and Gulomjonov O. R. Ogli. "Lombard Microcredit Organization Its Concept and Its Importance Today." *JournalINX*, vol. 6, no. 10, 2020, pp. 109-111.

<sup>8</sup> Мадумарова Зиёдахон. (2022). ЯНГИЛАНАЁТГАН ЎЗБЕКИСТОНДА ГЕНДЕР МУАММОЛАРИНИ БАРТАРАФ ЭТИШДА АХЛОҚИЙ ҚАДРИЯТЛАРИНИНГ ЎРНИ. <https://doi.org/10.5281/zenodo.6569712>

<sup>9</sup> Nasriddinovich, A. A. (2020). THE FEATURES OF APPEARING FAMILY IN MODERN SOCIETY. *European science review*, (3-4), 69-72.

<sup>10</sup> Jamoliddinovich, U. B. (2022). FUNDAMENTALS OF EDUCATION QUALITY IN HIGHER EDUCATION. *INTERNATIONAL JOURNAL OF SOCIAL SCIENCE & INTERDISCIPLINARY RESEARCH* ISSN: 2277-3630 Impact factor: 7.429, 11(01), 149-151.



4. Ergashevna, Y. N. (2021). ON METHODS OF RESEARCH OF UZBEK LANGUAGE SYNTAX. *Galaxy International Interdisciplinary Research Journal*, 9(11), 22-28.
5. Bakhridinova, B. M. (2020). "DEVONU LUGOTIT TURK" AS A FIRST VIEW OF MODERN COMPLEX EDUCATIONAL DICTIONARIES. *Theoretical & Applied Science*, (4), 981-985.
6. Tolibjonovich, M. T. (2021). EASTERN RENAISSANCE AND ITS CULTURAL HERITAGE: THE VIEW OF FOREIGN RESEARCHERS. *ResearchJet Journal of Analysis and Inventions*, 2(05), 211-215.
7. Tolibjonovich, Madumarov T., and Gulomjonov O. R. Ogli. "Lombard Microcredit Organization Its Concept and Its Importance Today." *JournalNX*, vol. 6, no. 10, 2020, pp. 109-111.
8. Мадумарова Зиёдахон. (2022). ЯНГИЛАНАЁТГАН ЎЗБЕКИСТОНДА ГЕНДЕР МУАММОЛАРИНИ БАРТАРАФ ЭТИШДА АХЛОҚИЙ ҚАДРИЯТЛАРНИНГ ЎРНИ. <https://doi.org/10.5281/zenodo.6569712>
9. Nasriddinovich, A. A. (2020). THE FEATURES OF APPEARING FAMILY IN MODERN SOCIETY. *European science review*, (3-4), 69-72.
10. Jamoliddinovich, U. B. (2022). FUNDAMENTALS OF EDUCATION QUALITY IN HIGHER EDUCATION. *INTERNATIONAL JOURNAL OF SOCIAL SCIENCE & INTERDISCIPLINARY RESEARCH* ISSN: 2277-3630 Impact factor: 7.429, 11(01), 149-151.